

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 369 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIIY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
ТЕМИР YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI

Yuldashev Fozil Turapovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
v.b.professori., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatini modernizatsiya qilish jarayonida investitsiya operatsiyalarining o'рни va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mamlakatda investitsiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytirib borayotgan sharoitda banklarning investitsion portfelini diversifikatsiya qilish, moliya bozorida zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish hamda banklar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Shuningdek, ayrim investitsion vositalar bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish, risk-menejment tizimini yanada takomillashtirish hamda investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlash yo'llari asoslab berilgan. Maqolada mavjud muammolar chuqur tahlil qilinib, ularni samarali hal etishga qaratilgan muallifning ilmiy asoslangan taklif va amaliy yondashuvlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya operatsiyalari, investitsiya faoliyati, moliyalashtirish, moliya bozori, qimmatli qog'ozlar, investitsion portfel, investitsion banklar, fond bozori, aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, risk-menejment.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role and significance of investment operations in the process of modernizing the activities of commercial banks. In the context of the steadily expanding scale of investment attraction in the country, particular attention is paid to the diversification of banks' investment portfolios, the introduction of modern financial instruments in the financial market, and the enhancement of the efficiency of banks' investment activities.

Furthermore, the paper substantiates approaches to minimizing risks associated with certain investment instruments, improving the risk management system, and ensuring the sustainability of investment processes. The study identifies existing challenges and presents the author's scientifically grounded proposals and practical approaches aimed at increasing the effectiveness and stability of investment activities in commercial banks.

Keywords: commercial banks, investment operations, investment activity, financing, financial market, securities, investment portfolio, investment banks, stock market, shares, bonds, deposit certificates, risk management.

Аннотация. В статье проведён научный анализ роли и значения инвестиционных операций в процессе модернизации деятельности коммерческих банков. В условиях последовательного расширения масштабов привлечения инвестиций в стране особое внимание уделено вопросам диверсификации инвестиционного портфеля банков, внедрения современных финансовых инструментов на финансовом рынке, а также повышения эффективности инвестиционной деятельности банковских институтов.

Кроме того, обоснованы пути минимизации рисков, связанных с отдельными инвестиционными инструментами, совершенствования системы риск-менеджмента и обеспечения устойчивости инвестиционных процессов. В статье выявлены ключевые проблемы и представлены научно обоснованные предложения и практические подходы автора, направленные на повышение результативности инвестиционной деятельности коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиционные операции, инвестиционная деятельность, финансирование, финансовый рынок, ценные бумаги, инвестиционный портфель, инвестиционные банки, фондовый рынок, акции, облигации, депозитные сертификаты, риск-менеджмент.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning izchil chuqurlashuvi, yangi ishlab chiqarish quvvatlari hamda asosiy fondlarning barpo etilishi, mavjud texnika va texnologiyalarni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarining samaradorligi, avvalo, investitsiya jarayonlarining qanchalik to'g'ri tashkil etilgani hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilishiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonini izchil davom ettirishda investitsiya siyosatini aniq va strategik maqsadlar sari yo'naltirish, xususan, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tijorat banklari tomonidan markazlashgan va markazlashmagan jamg'armalar mablag'larini, xorijiy investitsiyalar va kredit resurslarini samarali o'zlashtirish hamda ularni iqtisodiyotning real sektoridagi istiqbolli loyihalarga yo'naltirish jarayonining natijadorligi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Har-yili ishlab chiqiladigan davlat investitsiya dasturlari va mintaqaviy investitsiya dasturlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini mutanosib rivojlantirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, aholining bandlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlarda tijorat banklarining investitsiya operatsiyalari asosiy moliyalashtirish mexanizmlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining investitsiya operatsiyalarini samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, banklarning investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyatlarini baholash hamda iqtisodiyotning real sektori bilan o'zaro hamkorlikni yanada takomillashtirishdan iboratdir. Shu bilan birga, investitsiya faoliyatining institutsional asoslarini mustahkamlash, yirik va kichik xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida investitsion hamkorlikni kengaytirish hamda tijorat banklarining mintaqaviy rivojlanishdagi rolini kuchaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Biroq milliy bank tizimi, jumladan tijorat banklarining investitsiya faoliyati va uning hududiy iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etish mexanizmlari, shuningdek, investitsion risklar va ularni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari hali to'liq va tizimli ravishda o'rganilmagan. Investitsiya operatsiyalarining banklar faoliyatini diversifikatsiya qilish, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni bo'yicha nazariy-uslubiy yondashuvlarni yanada rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqola tijorat banklarining investitsiya operatsiyalariga oid nazariy va uslubiy masalalarni chuqur tahlil qilish, aniqlangan ilmiy bo'shliqlarni bartaraf etish hamda banklarning investitsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va xulosalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va modernizatsiyasini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston iqtisodiyotida izchil va samarali investitsiya siyosatini shakllantirish hamda uni amaliyotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Investitsiya faolligining ortib borishi, o'z navbatida, milliy ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuviga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda tijorat banklari investitsiya resurslarining muhim institutsional manbai sifatida alohida o'rin egallaydi.

"Investitsiya" atamasi lotincha *investiere* yoki inglizcha *invest* so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, muayyan qiymatni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joylashtirish, yo'naltirish va safarbar etish ma'nosini anglatadi. Investitsiya faoliyati amaldagi qonunchilik, davlat dasturlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Tijorat banklarining investitsion operatsiyalari ushbu jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, real sektorni moliyalashtirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yangilashga xizmat qiladi [1].

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Aksariyat hollarda investitsiya kelgusida qo'shimcha qiymat olish maqsadida joriy davrda mavjud resurslarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish sifatida talqin qilinadi. Iqtisodiy lug'atlarda esa investitsiyalar uzoq muddatli kapital qo'yilmalar shaklida sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa tarmoqlarga yo'naltiriladigan resurslar majmui sifatida ta'riflanadi. Mazkur yondashuvlar tijorat banklarining investitsion faoliyatiga xos bo'lgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, ularni samarali taqsimlash hamda risklarni boshqarish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

P. Masse investitsiya faoliyatining mohiyatini kelgusidagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida bugungi resurslardan foydalanish zarurati orqali izohlaydi. Ushbu yondashuv tijorat banklari uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki banklar investitsion portfellarini shakllantirishda kelgusi daromad olish imkoniyatlari, moliyaviy barqarorlik hamda xavf omillarini kompleks ravishda hisobga olgan holda qarorlar qabul qiladilar [2].



MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish, investitsion resurslarning turli manbalarini oqilona uyg'unlashtirish va investitsiya faolligini oshirishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi [3,4,5,6]. Akademik L. I. Abalkinning fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sishni tiklash va barqarorlashtirish investitsiya jarayonlarini faol qo'llab-quvvatlash bilan bevosita bog'liqdir. Uning ta'kidlashicha, investitsiyalarsiz ishlab chiqarishning barqaror o'sishiga erishish mushkul bo'lib, asosiy fondlarning eskirishi iqtisodiyotning izchil rivojlanishini cheklaydi. Ushbu sharoitda tijorat banklarining investitsiya operatsiyalari mavjud muammolarni yumshatish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [7].

Ilmiy adabiyotlar tahlili investitsiyalarni ichki va tashqi manbalarga ajratish zarurligini ko'rsatadi. Tashqi investitsiyalar bilan bog'liq holda valyuta konvertatsiyasi va daromadlarni repatriatsiya qilish masalalari yuzaga kelishi mumkin bo'lib, bu holat ayrim hollarda investitsiya loyihalarining umumiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari faoliyati nuqtai nazaridan esa ichki investitsiya manbalari — depozitlar, bank omonatlari, kredit resurslari, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va boshqa zamonaviy moliyaviy instrumentlar — muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonunida¹ investitsiyalar moddiy va nomoddiy ne'matlar ko'rinishida iqtisodiy faoliyat obyektlariga kiritiladigan qiymat sifatida ta'riflangan [8]. Ushbu ta'rif investitsiya tushunchasining umumiy mazmunini ifodalagan bo'lsa-da, tijorat banklarining investitsion operatsiyalariga xos bo'lgan murakkab moliyaviy mexanizmlarni yanada chuqurroq yoritishni taqozo etadi. Xususan, investitsion resurslar, investitsion qo'yilmalar va investitsiya obyektlari tushunchalarini aniq farqlash banklarning investitsion faoliyatini ilmiy tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu munosabat bilan investitsiya tushunchasini bank tizimi nuqtai nazaridan yanada aniqlashtirish, tijorat banklarining investitsiya operatsiyalarini moliyaviy, iqtisodiy hamda riskka asoslangan xususiyatlari orqali tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda investitsiyaning nafaqat daromad olishga qaratilgan jihatlari, balki ijtimoiy samaradorlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rnini ham alohida e'tiborga olinishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalaridagi ma'lumotlarning ishonchligi va dolzarbligi asosiy mezon sifatida e'tiborga olindi. Tadqiqot doirasida iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilindi.

Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy tahlil usullari bilan bir qatorda tizimli yondashuv, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xulosalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida integratsion jarayonlarning jadal rivojlanib borishi sharoitida tijorat banklarining investitsiya operatsiyalarini kengaytirishi hamda iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishi o'zaro chambarchas bog'liq va dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Banklarning moliyaviy resurslarni safarbar etishdagi faolligi, investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari hamda iqtisodiyot subyektlari bilan o'zaro hamkorlik darajasi milliy iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishlar ayrim hollarda davlatning tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatida yetarli darajada aks etmayotgani tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichi iqtisodiyotni chuqur isloh qilish hamda modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish bilan tavsiflanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab qisqa tarixiy davr mobaynida demokratik jamiyatni shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, iqtisodiy erkinlikni kengaytirish hamda moliya-bank tizimini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlarni izchil amalga oshirdi. Ushbu islohotlarning tizimli va barqaror ravishda olib borilishi mamlakat rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyasining puxtaligi, shuningdek, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan aniq va ustuvor maqsadlarning belgilab berilgani bilan izohlanadi. Natijada moliyaviy infratuzilmaning, xususan tijorat banklari faoliyatining modernizatsiya qilinishi uchun mustahkam institutsional va iqtisodiy poydevor yaratildi (1-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi.

1-jadval. Mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori², mlrd. so'mda

Hududlar	Yillar					2023–yilda 2019–yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
	2019	2020	2021	2022	2023	
O'zbekiston Respublikasi	195927,3	210195,1	239552,6	266240	356071,4	160144,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8750,6	7089,8	8110,7	10254	12959,2	4208,6
Andijon viloyati	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	18639,1	11187
Buxoro viloyati	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	31030,5	20663,9
Jizzax viloyati	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	14970,9	7070
Qashqadaryo viloyati	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	21138	-3324,5
Navoiy viloyati	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	26398,6	8752,3
Samarqand viloyati	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	25717,1	15450,4
Surxondaryo viloyati	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	18307,7	6472,6
Sirdaryo viloyati	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	15871,8	10002,7
Toshkent viloyati	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	47709,3	27355,4
Farg'ona viloyati	8685,4	11040	12625,2	15419,3	19955	11269,6
Xorazm viloyati	5032	5391,8	8292	8769,7	11666,1	6634,1
Toshkent shahri	42458,1	50371,4	58172,7	56847,9	71143,7	28685,6

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2023–yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hamda uning hududlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining dinamikasi aks ettirilgan. Mazkur ko'rsatkich iqtisodiyotda investitsiya faolligining darajasi, investitsion muhitning barqarorligi hamda tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki bilan bevosita bog'liqdir. Umumrespublika miqyosida investitsiyalar hajmining 2019–yildagi 195,9 trln so'mdan 2023–yilda 356,0 trln so'mga yetishi investitsion faollikning sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi. Ushbu o'sish, bir tomondan, davlat tomonidan amalga oshirilgan izchil iqtisodiy islohotlar, ikkinchi tomondan esa tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi faolligi bilan izohlanadi. Xususan, banklar kredit portfellarida investitsion kreditlar ulushining ortishi hamda loyiha moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarining joriy etilishi investitsiya jarayonlari ko'lamining kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hududlar kesimida investitsiyalar hajmidagi farqlar tijorat banklarining mintaqaviy investitsiya siyosati, real sektorni moliyalashtirish miqdori hamda hududiy iqtisodiy imkoniyatlarning turlicha ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati investitsiya oqimlari bo'yicha yetakchi hududlar sifatida shakllanib kelmoqda. Ushbu hududlarda tijorat banklari tomonidan yirik sanoat, infratuzilma va xizmat ko'rsatish sohalarini moliyalashtirish faol amalga oshirilgan. Buxoro, Samarqand, Andijon va Farg'ona viloyatlarida ham investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi kuzatilgan bo'lib, bu holat sanoat ko'rsatkichlarining kengayishi, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilinishi hamda bank investitsiya kreditlari hajmining ortishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Qashqadaryo viloyatida 2023–yilda 2019–yilga nisbatan investitsiyalar hajmining nisbatan kamaygani qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu holat hududda ayrim yirik investitsiya loyihalarining yakunlanishi, investitsiya oqimlarining qayta yo'naltirilishi hamda banklar investitsiya siyosatining tarkibiy jihatdan yangilanishi bilan izohlanishi mumkin. Bu esa keyingi–yillarda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun muayyan salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida qayd etilgan o'sish sur'atlari tijorat banklari tomonidan mintaqaviy loyiha moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilgani bilan bog'liq holda baholanishi mumkin. Ayniqsa, sanoat zonalar va infratuzilma obyektlarini rivojlantirish jarayonida banklarning ishtiroki sezilarli darajada kuchaygan.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmidagi hududlararo o'zgarishlar tijorat banklari faoliyati uchun bir qator muhim jihatlarni anglatadi. Avvalo, investitsiya operatsiyalarining iqtisodiy o'sishdagi roli yanada kuchayib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan uzoq muddatli investitsion kreditlar real sektorning texnologik yangilanishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi uchun mustahkam moliyaviy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududiy investitsiya salohiyatidagi tafovutlar banklardan yangi strategik yondashuvlarni talab etadi. Xususan, investitsiya hajmi past bo'lgan hududlarda loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va investitsion risklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Banklarning investitsion portfellarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Hududlar bo'yicha iqtisodiy faollik darajasining turlicha bo'lishi banklarga risklarni hududiy diversifikatsiya orqali samarali boshqarish imkonini beradi. Makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi esa banklarning investitsiya operatsiyalari samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. 2023–yilda investitsiyalar hajmining sezilarli darajada oshishi bank tizimi resurs bazasining kengaygani hamda investitsion kreditlarga bo'lgan talabning ortganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, keltirilgan ma'lumotlar tijorat banklarining investitsiya faoliyati mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim va hal qiluvchi omilga aylanib borayotganini tasdiqlaydi. Hududlar kesimida investitsiyalar hajmini chuqur tahlil qilish banklarga o'z investitsion strategiyalarini takomillashtirish, mintaqaviy iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiya jarayonlari samaradorligini oshirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

So'nggi–yillarda qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining izchil amalga oshirilishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlash hamda aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonda tijorat banklarining investitsion faoliyatdagi ishtiroki, real sektorni moliyalashtirishdagi faolligi va investitsion resurslarni samarali taqsimlashga qaratilgan chora-tadbirlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Banklar tomonidan investitsiya operatsiyalarining izchil rivojlantirilishi milliy iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda hududlararo iqtisodiy muvozanatni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, investitsion faoliyatni faollashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, aktivlar sifatini yaxshilash va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati oshishiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar tahlili³

Ko'rsatkichlar	Yillar					2023–yilda 2019–yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Yalpi ichki mahsulot	114,4	111,9	110,6	111,8	108	-6,4
Inflyatsiya darajasi	13	14,3	11,6	9,8	12,2	-0,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	138,1	95,6	102,9	100,2	123,4	-14,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha narxlar indeksi–yillik dinamikasi	119	109,1	112,4	110,3	108,1	-10,9
Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi	13,8	7,6	8	6,6	3,8	-10
Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda	10891,7	13852,3	17755,1	24508,1	35261,9	24370,2

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinayotgan 2019–2023–yillar davomida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi hamda tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar tijorat banklari tomonidan investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari, resurs bazalarining barqarorligi hamda investitsion loyihalarga bo'lgan talab darajasini belgilovchi muhim mezonlar hisoblanadi.

Yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sish sur'atlarining 2019–2023–yillar oralig'ida 108 foizdan 101,6 foizga pasayishi (–6,4 punkt) iqtisodiy o'sishning nisbatan sekinlashganini anglatadi. Mazkur holat ayrim davrlarda tijorat banklarining uzoq muddatli investitsiya kreditlariga bo'lgan talab dinamikasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, u banklar tomonidan kreditlash siyosatini yanada puxta va ehtiyotkorlik bilan olib borishga, investitsion loyihalarni tanlashda sifat mezonlarini kuchaytirishga xizmat qilgan. Natijada banklarning kredit portfeli sifati va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurati yanada dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Inflyatsiya darajasining 2019–yildagi 13 foizdan 2023–yilda 12,2 foizga pasayishi (–0,8 punkt) umumiy narxlar barqarorligini ta'minlash borasida ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim–yillarda inflyatsiya ko'rsatkichlarining tebranishi investitsiya muhitiga muayyan ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, inflyatsiyaning nisbatan nazorat ostida ushlab turilishi tijorat banklari uchun resurslar narxini barqarorlashtirish, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini aniqroq belgilash hamda investitsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligini baholash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar indeksining 2023–yilda 2019–yilga nisbatan 14,7 punktga kamayishi iqtisodiyotda investitsiya faolligining vaqtincha sekinlashganidan dalolat beradi. Biroq ushbu holat

3 Muallif ishlanmasi.

investitsiya oqimlarining qayta yo'naltirilishi, yirik loyihalarning yakunlanishi va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashuvi bilan izohlanib, tijorat banklari uchun investitsiya strategiyalarini yangilash va yangi istiqbolli yo'nalishlarni izlash zaruratini yuzaga keltirdi.

Narxlar indeksining 2019–yildagi 119 foizdan 2023–yilda 108,1 foizga pasayishi (–10,9 punkt) investitsion loyihalar qiymatining nisbatan barqarorlashganini ko'rsatadi. Bu holat tijorat banklari uchun ijobiy omil bo'lib, investitsiya loyihalarini moliyaviy baholash, kreditlash risklarini aniqlash va investitsiyalar qaytimi bo'yicha prognozlarni yanada aniqroq shakllantirish imkonini berdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda bank kreditlari ulushining 2019–yildagi 13,8 foizdan 2023–yilda 3,8 foizga kamayishi (–10 punkt) banklar investitsion faoliyatining tarkibiy jihatdan qayta ko'rib chiqilayotganini ko'rsatadi. Ushbu jarayon banklar tomonidan risklarni ehtiyotkorlik bilan baholash, qisqa muddatli kreditlashga nisbatan yuqori e'tibor qaratilishi, shuningdek, xususiy investitsiyalar, xorijiy kapital va davlat mablag'lari kabi alternativ moliyalashtirish manbalarining faollashuvi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Mazkur holat tijorat banklari oldida investitsiya operatsiyalaridagi ishtirokni yangi moliyaviy instrumentlar va zamonaviy mexanizmlar orqali kuchaytirish vazifasini dolzarb etmoqda.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining 2019–yildagi 10,8 trln so'mdan 2023–yilda 35,2 trln so'mga oshishi (+24,4 trln so'm) raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanayotganini yaqqol namoyon etadi. Ushbu o'sish tijorat banklarining raqamli investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotganini ko'rsatib, bank xizmatlarini optimallashtirish, masofaviy bankingni kengaytirish, investitsiya operatsiyalarining tezkorligini oshirish hamda risklarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratmoqda. Natijada raqamli xizmatlar ko'lamining kengayishi banklarning investitsion salohiyatini sezilarli darajada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari investitsiya operatsiyalarining rivojlanishi makroiqtisodiy muhit barqarorligi, investitsiyalar hajmi, inflyatsiya dinamikasi hamda iqtisodiyotning raqamlashtirilish darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Bank kreditlari ulushining qisqarishi esa tijorat banklari oldida investitsion faoliyatni yanada faollashtirish, risk-menejment tizimlarini takomillashtirish va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirib, bank tizimining iqtisodiy o'sishdagi rolini yanada kuchaytirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda (3-jadval).

3-jadval. Tijorat banklarining xalqaro obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha anderrayterlar guruhi⁴

Emitent	Obligatsiya turi	Anderrayterlar guruhi
“O'zsanoatqurilishbank” ATB	Evroobligasiya	JP Morgan, Citigroup, Commerzbank, Raiffeisen Bank
“O'zmilliybank” AJ	Evroobligasiya	Citibank, Natixis, SMBC Nikko, Gazprombank
“Ipotekabank” AJ	Evroobligasiya	J.P. Morgan, Raiffeisen Bank International AG, MUFG, Societe Gncralc
“Ipotekabank” ATIB	Xalqaro obligasiya, so'mda	J.P.Morgan Chase

Qayd etish joizki, milliy korporativ emitentlar xalqaro moliya bozorlaridagi amaliyot davomida anderrayterlar guruhida nufuzli global moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilishga ustuvor ahamiyat qaratgan. Xususan, J.P. Morgan Chase va Citigroup Global Markets kabi yetakchi anderrayterlarning faol ishtiroki kuzatiladi. Bunday kuchli brendga ega anderrayterlarning tanlanishi nisbatan yuqori xarajatlarni talab etsa-da, ularning ishtiroki global investorlar uchun ishonch omili bo'lib, emitentning investitsion jozibadorligini oshiruvchi samarali “reklama” vazifasini bajaradi.

Evroobligatsiyalarning debyut emissiyasi O'zmilliybank tomonidan Citibank (AQSh), Natixis (Fransiya), SMBC Nikko (Yaponiya) va Gazprombank (Rossiya) kabi xalqaro miqyosda tan olingan anderrayting banklari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Mazkur jarayonda to'rtta turli davlat moliya institutining anderrayterlar guruhida ishtirok etgani O'zmilliybank aksiyadorlik jamiyatining xalqaro moliya bozorlaridagi nufuzini namoyon etadi. Shu bilan birga, bunday keng ko'lamli anderrayterlar tarkibi anderrayting xarajatlarining oshishiga olib kelgan bo'lsa-da, emissiyaning muvaffaqiyatli joylashtirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tijorat banki aksiyalarini fond birjasida birlamchi ommaviy joylashtirish jarayonida anderrayterlar tomonidan aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini belgilash, investorlarning aksiyalarni sotib olish bo'yicha arizalarini yig'ish hamda qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish narxini bankning boshqaruv organlari bilan kelishish imkoniyati mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm aksiyalarni bozor talabiga mos ravishda joylashtirish hamda investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

4 Muallif ishlanmasi.



Umuman olganda, korporativ emitentlarning yuqoridagi jihatlariga e'tibor qaratgan holda xalqaro obligatsiyalarni yuqori investitsion jozibadorlikka ega va nisbatan past foiz stavkalarida joylashtira olishi ularning kelgusida aksiyalarini global miqyosda ommaviy joylashtirish uchun mustahkam asos yaratadi, degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tijorat banklarining investitsiya operatsiyalarini izchil rivojlantirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda real sektorni samarali qo'llab-quvvatlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy va tezkor o'zgarib borayotgan iqtisodiy muhit sharoitida banklar nafaqat an'anaviy kreditlash faoliyatini amalga oshirishi, balki investitsiya yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishi, zamonaviy moliyalashtirish instrumentlarini joriy etishi hamda investitsiya bozorida raqobatbardoshligini oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari investitsiya faoliyatini kengaytirishda kapital bozorida faol foydalanishi, xususan, obligatsiyalar emissiyasi orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilishi hamda korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirokini kuchaytirishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv banklar likvidligini mustahkamlash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va real sektor loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, investitsion banklar va ventur fondlari bilan hamkorlik qilish innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratib, banklar faoliyatida yuqori texnologiyali yo'nalishlar ulushining oshishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, tijorat banklari investitsion portfellarini shakllantirish jarayonida marketing strategiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Banklarning moliyaviy barqarorligi, daromadlar dinamikasining ijobiyligi hamda amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli natijalari potensial investorlarning qiziqishini kuchaytirib, banklarning investitsion imijini mustahkamlaydi. Investitsiya jarayonlarida mavjud risklarni oldindan aniqlash, ularni baholash va minimallashtirish bo'yicha puxta strategiyalarning mavjudligi esa banklarning raqobatbardoshligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish ko'p qirrali va strategik yondashuvni talab etadigan jarayon bo'lib, milliy iqtisodiyotning barqaror va uzluksiz o'sishini ta'minlashda bevosita ahamiyat kasb etadi. Uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, kapital bozorida faol ishtirokni kengaytirish hamda risklarni samarali boshqarish banklarning iqtisodiyotdagi rolini va faoliyat natijadorligini yanada oshiradi. Shu bois tijorat banklarining investitsion strategiyalarini chuqur tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahriri –T.: -Adolat, 2019. 13 b. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
2. Финансово-кредитный словарь. Т. – М.: «Финансы и статистика», 1984. - С. 470.
3. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Отсценка эффективности инвестиционных проектов. – М.: Издательство —ДЕЛО. -2002. С.22.
4. Ивасенко А.Г. Иностранные инвестиции: учебное пособие / А.Г. Ивасенко, Я.И. Никонова. – М.: КНОРУС, 2010. – 272 с.
5. Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: учеб. пособие / М.А. Николаев. -Финансы и статистика; ИНФРА-М.- 336 с.
6. Кожухур В.М. Практикум по иностранным инвестициям. – 2-е изд. – М.: Издательско – торговая корпорация «Дашков и К», 2009. – 256 с.
7. Браун К. Маленькая книжка, которая научит вас инвестировать / К. Браун; пер. с англ. П.А. Самсонов. – Минск: «Попурри», 2009. – 240 с.;
8. Абалкин Л.И. Логика экономического роста. -М.: Институт экономики РАН, 2002. С. 228.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100